

TARIXIY HAQIQAT**Xudoymurodova Xuriyat Muxiddinovna**<https://doi.org/10.5281/zenodo.13144121>

Annotatsiya. Ushbu maqolada A.Qodiriyning “O’tgan kunlar” romanini haqida so‘z yuritilgan. Maqola davomida asosli fikr va mulohazalar yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Abdulla Qodiriy, “O’tkan kunlar” roman, badiiy adabiyot, ziyoli.

HISTORICAL TRUTH

Abstract. This article talks about A. Qadiri's novel "Past Days". Reasonable opinions and comments are made throughout the article.

Key words: Abdulla Qadiri, "Otkan Kunlar" novel, fiction, intellectual.

ИСТОРИЧЕСКАЯ ПРАВДА

Аннотация. В данной статье рассказывается о романе А. Кадири «Прошлые дни». На протяжении всей статьи высказываются обоснованные мнения и комментарии.

Ключевые слова: Абдулла Кадири, роман «Откан Кунлар», художественная литература, интеллектуал.

XIX asrning oxiri XX asrning boshlarida Turkistonda ijtimoiy-ma'naviy uyg'onish keng qamrov oldi. Ziyolilar, ayniqsa, jadidlar millat hayotida nish urib kelayotgan evrilishlarga keng yo‘l ochdi. Bu badiiy adabiyotga ham tom ma'noda taalluqli bo‘ldi. Alloma adib Abdulla Qodiriy “O’tkan kunlar” romaniga yozgan so‘z boshida “Modomiki, biz yangi davrga oyoq qo‘ydik, bas, biz har bir yo‘sinda ham shu yangi davrning yangiliklari ketidan ergashamiz va shunga o‘xshash dostonchilik, ro‘monchilik va hikoyachiliklarda ham yangarishga, xalqimizni, shu zamonnинг “Tohir-Zuhro”lari, “Chor darvesh”lari, “Farhod va Shirin” va “Bahromgo‘r”lari bilan tanishtirishga o‘zimizda majburiyat his etamiz ” deb yozganda, badiiy adabiyotning ham janr o‘zgarishlari, ham estetik qarashlaridagi bo‘lg‘usi evrilishlarini nazarda tutgan edi. Bu qarashlari hosilasi bo‘lib, “O’tkan kunlar” dunyoga keldi.

Romanning yuzaga kelishiga qator omillar sabab bo‘ldi. Eng avvalo, Sharq adabiyoti, xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalanildi. Qolaversa, rus va yevropa, turk adabiyotidan oziqlanildi. Yana bir muhim omil adib romanga xos tafakkurgacha hikoyada realizmga erishdi. Uning “Uloqda” hikoyasi o‘zbek nasrida realizmning cho‘qqisi bo‘ldi. Ayni vaqtida qodiriyona realizm shakllanib, ustuvorlashdi. U birinchidan, tarix va hayotni xolis turib baholash va kishilar ruhiy ahvoli, ichki dunyosini o‘zgalarga-kitobxonga yuqtira olish san’atini e’tirof etdi. Romanning tug‘ilishi va yuksak pafos bilan yozilishi adib qalbida dard bo‘lib yotgan, vulqon bo‘lib otilishi

shart bo‘lgan millat tarixi, taqdiri va kelajak istiqbolini yirik nasrda ifodalashga olib keladi. Oktabr to‘ntarilishi mahalliy xalq istagan hurriyatni bermadi, aksincha, yangi istibdodning tug‘ilish xavfi paydo bo‘lmoqda edi. Ana shu bois ham adib, “moziyga qaytib ish ko‘rish”ni maqsad qilib, keyingi “xon zamonlari”ni oldi. Bundan adib saboq izladi. Bu tuyg‘ular “O‘tkan kunlar” da o‘z aksini topdi. Asarga “O‘tkan kunlar” deb nom qo‘yishining boisi bor. Adib turk adibi Husayn Jovidning “O‘tkan kunlar” to‘plami nomidan andoza olgan bo‘lishi mumkin. Lekin aslida romandagi voqealar o‘tdi-ketdi, u tarix bo‘lib qoldi, undan xulosa chiqarib, bugungi kunni o‘yaylik degan estetik fikr sizib turadi.

Romanda tarixiy haqiqatning badiiy in'ikosi, ya'ni qo‘qonliklarning o‘zi xon, tabi vazirligi, xonu beklarning kelishmovchiligi natijasida xalqning haddan tashqari ezilishi, qipchoq va qorachoponlar, nihoyat kundoshlik balosi, ana shu masalalarga nisbatan davrning ziyoli, peshqadam insonlariadolat o‘rnatish, zulm pichog‘ini qayraganlarning popugini pasaytirib qo‘yishga intilganlar obrazni ham berilgan.

Biz bu o‘rinda romandagi mustaqillik, istiqlol masalasiga alohida to‘xtalishni lozim topdik. Chunki romanning pafosi ham ana shu nuqtadan kelib chiqadi. Binobarin, yurtning mustaqilligi, birligi, totuvligi, tinchligi masalasi romanning asosiy pafosi darajasiga ko‘tarilgan.

Yurtning daxlsizligi, mustaqilligi romangacha va uning muallifi Qodiriygacha bunday to‘la va haqqoniy aks ettirilgan emas. Boz ustiga mahalliy davlatning o‘zgalar oldida taslimchilik, mute’lik illatlari chuqur badiiy ifodalangan. Shunga qaramasdan, o‘sha “kir” tarixda millatning taqdiri bilan qiziqqan va bu borada o‘ylagan ziyolilar ham borligi Yusufbek hoji hamda Otabek obrazlarida yorqin ifodalangan.

Otabek Shamayga borib kelgandan so‘ng mahalliy hukumat va uning boshqarish tizimini yaroqsiz deb biladi: “Men o‘rusning idora ishlarini ko‘rib, o‘z idoramizning xuddi bir o‘yinchoq bo‘lganligini iqror etishga majbur bo‘ldim”. U har ikki yurt davlat boshqarish tartibini solishtiradi va bilgan hamda ko‘rganlarini xonu beklarga aytib yuborgisi keladi, ammo:

“Sening arzingni shu xonlar eshitadimi, shu beklar qiladimi?” deb meni ma'yus qildilar”, degan xulosaga keladi. Fikrlarini xulosalab Otabek: “Meningcha, o‘rusning bizdan yuqoriligi uning ittifoqidan bo‘lsa kerak... ammo bizning kundan-kunga orqaga ketishimizga o‘zaro nizolarimiz sabab bo‘lmoqda, deb o‘yayman...” deydi.

Noittifoqlik o‘lkani, xalqni tobora jar yoqasiga olib borib qo‘yadi. Adib qahramonlari harakati bilan yurtning tanazzulga uchrashi va buning oqibatida kelib chiqadigan o‘nglab, tuzatib bo‘lmas kulfatlarni ham birday tasvirlaydi. O‘lkada omma hali xalq bo‘lib shakllanib ulgurmagan, ular olomon. Kim qayoqqa boshqarsa ketaveradi. Qorachopon va qipchoq nizosi va qon to‘kishlari buning yaqqol guvohi hamda isbotidir.

Romanning g'oyaviy yakuniga e'tibor bersak, asarning pafosi - yurt mustaqilligi, daxlsizligi, ittifoqlikka da'vat etish ekanligi ayon bo'ladi.

Otabek Avliyo ota (hozirgi Jambul) ustidagi rus podshosi askari bilan jangda halok bo'ladi. Bu Otabekning yurt daxlsizligi, mustaqilligi, o'zga tomonidan o'z yurtini bosib olishini istamasligi, aksincha, elu yurtini boshqa taraqqiy qilgan yurtlar qatorida ko'rishni xohlashidir. U millat o'g'loni sifatida oddiy sipohi bo'lib jangga otlandi. U yurt istiqlolli yo'lida ko'ksini qalqon qildi va ko'kragidan o'q yedi. Bu - millat uchun fidoyilik. Romanda ana shunday istiqlol masalasi ulug'langan.

REFERENCES

1. Eshonqul N. Ijod ruhning hurligidir. Yozuvchi, 1998 yil, 21 yanvar.
2. Matyoqubov S. Badiiy psixologizm qirralari. O'zbek tili va adabiyoti, 2006 yil, 4-son.
3. Sherov. A. Badiiy ijodiyot estetikasi. Yosh kuch, 2006, 4-son
4. Rustamova M. Nasrda ruhiyat tasviri.
5. Imomova G. Milliy va umuminsoniy xarakter sintezi. Jahon adabiyoti, 2005 yil, 8-son.
6. Yo'ldoshev Q. Anglashning azobli yo'li. Guliston. 2005 yil, 1-son, 22-35- betlar.